



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 10 (1609), 2026-yil 16-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



OCHIQ VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSAT O‘ZBEKISTONNI GLOBAL TINCHLIK VA DIPLOMATIYA MARKAZLARIDAN BIRIGA AYLANTIRDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yig‘ilish avvalida davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv jahonda keskin geosiyosiy o‘zgarishlar bo‘layotgan, davlatlar suverenitetiga xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan murakkab bir paytda o‘tayotganini qayd etdi. Bunday sharoitda tashqi siyosat sohasidagi faoliyatni tanqidiy muhokama qilib, Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar ishini yangicha tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari tashqi siyosat borasida 2025-yil ko‘p jihatdan natijador bo‘lganini qayd etdi. O‘tgan yili 26 ta xorijiy davlatga oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, yangi tariximizda ilk bor qator davlatlar rahbarlarining O‘zbekistonga tashriflari tashkil

etildi. “Markaziy Osiyo plus” formatidagi ko‘p tomonlama muloqotlar sarmahsul bo‘ldi. So‘nggi yillarda 11 ta davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetdi, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan ittifoqchilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi.

— Ochiq, pragmatik, puxta o‘ylangan va tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida O‘zbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda, — dedi Prezidentimiz.

2017-yildan buyon xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonalari ochilib, ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o‘rnatilgan davlatlar

soni esa 165 taga yetdi. Elchixonalar, konsullik muassasalari va xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalar shtatlari hamda Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining ish haqi oshirilgani qayd etildi.

Shu bilan birga, “Barcha diplomatik vakolatxonalar mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanyaptimi?” degan masala o‘rtaga qo‘yildi.

— Hozirgi sharoitda elchi degani faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas. Elchi — investitsiya va texnologiya olib keladigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, transport-logistika yo‘laklarini ishga soladigan, turistlar oqimini ko‘paytirib, qonuniy mehnat migratsiyasi uchun sharoit

yaratadigan, eng asosiysi, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qiladigan davlat vakilidir, — dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan elchilar uchun ular faoliyat yuritayotgan davlatlardan eksport tushumlari, turistlar oqimi hamda ushbu mamlakatlarga qonuniy mehnat migratsiyasi samaradorlik mezonini ko‘lishi qayd etildi.

Iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish orqali eksport va investitsiya hajmini oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar doirasida 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo shartnomalari bo‘yicha bitimlar imzolandi. Tarixda ilk bor tashqi savdo aylanmasi

80 milliard dollardan oshib, eksport 33,5 milliard dollarga yetdi, xorijiy investitsiyalar esa 43 milliard dollardan oshdi. O‘tgan yili 75 ta davlatga eksport hajmi qariyb 4,5 milliard dollarga ko‘paydi.

Shu nuqtayi nazardan elchilarga Yaqin Sharq, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlari yo‘nalishlarida eksportni kengaytirish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, kimyo, to‘qimachilik, issiqxona va xizmatlar sohaslarida aniq loyihalar bilan ishlash vazifalari qo‘yildi. Ayrim bozorlarda O‘zbekiston mahsulotlarining nomi yetarlicha tanitilmayotgani qayd etildi.

Logistika xarajatlarining ortishi milliy mahsulotlar raqobatdoshligiga salbiy

ta’sir ko‘rsatayotgani ta’kidlanib, Yevropa bozorlariga chiqishda tranzit yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, logistika zanjirlarini qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida tejamkor texnologiyalar, innovatsion issiqxonalar tajribasini o‘rganish, ularni hududlarimizda joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi. Shuningdek, kimyo sanoati mahsulotlari uchun yangi eksport bozorlarini ochish, standart va talablarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazish, ko‘rgazmalar tashkil etish masalalari qayd etildi.

Davomi 2-betda

MADANIYAT VA TURIZM BO‘YICHA YIRIK LOYIHALAR O‘ZARO UYG‘UN HOLDA AMALGA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro madaniy tadbirlarning natijalari, turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi vazifalar hamda yirik madaniyat va turizm obyektlarini barpo etishga oid taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xalqaro madaniyat makonida o‘z mavqegini izchil mustahkamlab bormoqda. Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi 190 mamlakatdan 3 mingdan ortiq delegatlar ishtirokida muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Tadbir yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning madaniy merosini muhofaza qilish, ta’lim va kreativ iqtisodiyot bo‘yicha tashabbuslarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Mamlakatimizning Yaponiyada bo‘lib o‘tgan EKSP-2025 Butunjahon ko‘rgazmasidagi ishtiroki yakunlari sarhisob qilindi. O‘zbekistonning 1,2 ming kvadrat metr maydonda tashkil etilgan “Bilimlar bog‘i” pavilyoniga 1 million nafarga yaqin odam tashrif buyurdi. Taqdim etilgan ekspozitsiyalar xalqaro miqyosda keng yoritildi hamda eng ko‘p tashrif buyurilgan pavilyonlar qatoridan joy oldi. Ayni paytda Saudiya Arabistonida bo‘lib o‘tadigan EKSP-2030 ko‘rgazmasida ishtirok etishga tayyorgarlik ishlari boshlanib, maydoni 3,6 ming kvadrat metr bo‘lgan pavilyon qurilishi rejalashtirilgan.

Buxoroda o‘tkazilgan birinchi Zamonaviy san’at biyennalesiga alohida e’tibor berildi. 70 kun davom etgan tadbir 3,5 gektar maydonni va 14 ta restavratsiya qilingan madaniy meros obyektlarini qamrab oldi. Biyennaleda 40 dan ortiq davlatdan 70 nafar ijodkor va kurator ishtirok etdi. Tadbirda ishtirok etganlarning soni qariyb 1,8 million nafarni tashkil etib, jumladan, 100 nafardan ortiq yuqori martabali xorijiy mehmon tashrif buyurdi. O‘zbekistonning 2021-yildan buyon Venetsiya biyennalesida doimiy ravishda ishtirok etishi esa Italiyadan sayyohlar oqimining o‘sishiga xizmat qilayotgani ta’kidlandi.

Mamlakatda yirik xalqaro konsert dasturlari o‘tkazildi. Xususan, Toshkentda Jennifer Lopes, Xivada Black Coffee, Samarqandda Andrea Bozellining konsertlari bo‘lib o‘tdi. Tadbirlarni o‘tkazish davrida mazkur shaharlarda mehmonxonalardan foydalanish darajasi 90 foizdan oshdi, bu esa turizm va xizmatlar sohasi daromadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

2025-yilda sayyohlar soni 11 milliondan oshib, turistik xizmatlar eksporti 4,8 milliard dollarga yetgani, shuningdek, vizasiz tartib joriy etilgan davlatlarning soni 94 taga ko‘paygani qayd etildi.

Shu bilan birga, turizm sohasini loyiha boshqaruvi tizimiga o‘tkazish, turizm mahsulotlarini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha yagona mexanizmi joriy etish hamda yirik tadbirlarni muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Soha faoliyatini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Davlat va xususiy axborot tizimlarini uyg‘unlashtirib, Milliy turizm platformasini ishga tushirish, turistlar va tadbirkorlar uchun proaktiv raqamli xizmatlarni joriy etish, naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirish hamda turistlar oqimini tahlil qilish vazifalari belgilab berildi. Raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va sayyohlik yig‘imidan yillik tushumlarni oshirish rejalashtirilgani qayd etildi.

Mamlakatimiz turizm salohiyatini AQSH, Fors ko‘rfazi davlatlari, Hindiston, Xitoy va Skandinaviya kabi ustuvor bozorlarda ilgari surish bo‘yicha yangi marketing strategiyasini amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi. O‘zbekistonning xalqaro turistik platformadagi ishtirokini kengaytirish, raqamli kontentni rivojlantirish hamda yirik media resurslari va fikr yetakchilarini jalb qilish vazifalari belgilandi.

Taqdimotda yirik madaniyat va turizm obyektlari loyihalari ko‘rib chiqildi.

Samarqandda “Samarqand merosi yo‘lagi” loyihasi ish boshlamoqda. Register ansambli, Bibixonim va Shohi Zinda majmualari hamda Mirzo Ulug‘bek rasadxonasini 6,6 kilometrlik yagona sayyohlik yo‘nalishi o‘zaro bog‘laydi.

Samarqandda yangi “Ipak yo‘li” muzeyini qurish loyihasi taqdim etildi. Umumiy maydoni 19,5 ming kvadrat metrni tashkil etadigan uch qavatli zamonaviy bino qurilib, unda inklyuziv muhit, ko‘rgazma zallari, ekspozitsionlar, saqlash fondlari, shuningdek, ta’lim olishga mo‘ljallangan hududlarni yaratish ko‘zda tutilgan.

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi hududida landshaft dizaynini yangilash rejalashtirilmoqda. Yangi muzey binosi, immersiv ko‘rgazmazallari, tashrif buyuruvchilar uchun markaz barpo etiladi. Piyoda yo‘laklari obodonlashtirilib, arxeologik obyektlar yagona muzey muhitiga uyg‘unlashtiriladi.

Shuningdek, Buxoro shahrining bosh rejasi taqdim etildi. Unda qulay shahar muhitini shakllantirish, transport va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, kongress-xoll, amfiteatr, kutubxona, fud-xoll, chakana savdo va tijorat obyektlari hamda yuqori toifali mehmonxonani o‘z ichiga oladigan ko‘p funksiyali majmua sifatida tarixiy-etnografik bog‘ barpo etish nazarda tutilgan.

Muhokama yakunida Prezidentimiz madaniyat loyihalarini turizmni rivojlantirish vazifalari bilan o‘zaro bog‘lagan holda amalga oshirish, ularning iqtisodiy barqarorligi va sifatli boshqaruvi ta’minlash zarurligini alohida ta’kidladi.

O‘za

“MENING MAKTABIM” LOYIHASI NIMASI BILAN MUHIM?

Ma’lumki, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlarning bittadan tuman(shahri)da va Toshkent shahrining 1 ta tumanida sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish belgilangan edi. Ayni paytda jarayon qanday kechayotgani, loyihani o‘tkazish tartibi, ahamiyati haqida Iqtisodiyot va moliya vazirligi mutaxassisi Ulug‘bek Choriyev taqdim etgan ma’lumotlar asosida batafsilroq tushunchaga ega bo‘ldik.



G‘oyadan amaliyotga

OpenBudget
O‘zbekiston Respublikasi
“Ochiq Budget” Portali

“Mening maktabim” — umumta’lim muassasalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ochiq loyiha bo‘lib, unda ishtirokchilar maktab infratuzilmasi, ta’lim sifati va muhitini, dam olish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan g‘oyalari bilan ishtirok etadi. Ya’ni 5-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan har bir o‘quvchi o‘zi ta’lim olayotgan umumta’lim maktabiga doir loyihalarni ilgari surishi hamda ushbu loyihalarga ovoz berishi mumkin.

Davomi 5-betda



Islahot odimlari

Inson sog‘lom va uzoq umr kechirishi uchun toza suv, to‘yimli oziq-ovqat bilan bir qatorda havoning sofligi nihoyatda muhim omillar qatorida turadi. Ammo so‘nggi yillarda atmosfera havosining ifloslanishi, chang-to‘zonlar kuchayganini inkor etib bo‘lmaydi. Mamlakatimiz va mintaqamizda ham bunday ekologik noxush holatlar tez-tez qayd etilayotgani barchamizni tashvishga soladi, albatta.

EKOLOGIYA UCHUN QARIYB
IKKI TRILLION SO‘MSOHAGA QARATILAYOTGAN BUNDAY YONDASHUV
AMALDA QANDAY SAMARA BERMOQDA?

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Insoniyatning kelajak taqdiri va hayot davomiyligi tabiat boyliklaridan oqilona va tejankorlik bilan foydalanishiga bog‘liq. Afsuski, o‘tgan asrlarda bu borada muvozanatni saqlashga amal qilinmadi. Hatto bugungi davrimizda ham inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik to‘liq ta‘minlanayotgi deyish mushkul. Sayyoramizning qaysidir burchaklarida o‘rmonlar ayovsiz kesilmoqda. Inson omili tufayli kelib chiqqan yong‘in gektarlab yashil maydonlarni kultepaga aylantiryapti.

Bioxilma-xillikni asrashga yetarli e‘tibor berilmaslgi natijasida bir qancha noyob turlar yo‘q bo‘lib ketmoqda, ko‘plab ekotizimlar zaxirasi ortga qaytarib bo‘lmaydigan jarayonga yuz tutgan. Aholi sonining kundan kunga ko‘payishi esa tabiiy resurslarga talabni tinimsiz oshiryapti. Bu holat ekologik vaziyatni yanada chigallashtiryapti.

Shunday murakkab vaziyatda tabiatga inson omilining ta‘sirini kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishishning maqbul yechimlarini topish xalqaro hamjamiyat zimmasiga katta mas‘uliyat yuklagan. Bu muammolarni hal etish uchun dunyo miqyosida ko‘plab tashabbuslar ilgari surilyapti, bir qator strategiya va dasturlar ishlab chiqilib, ijrosini ta‘minlash bo‘yicha uzluksiz ish olib borilyapti.

Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ham insoniyatning ertangi taqdiriga daxldor ana shunday dolzarb muammolarga oqilona yechim topish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘shishning resurslar tejankorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tishdir. Qator strategik hujjatlar doirasida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmogda. Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida bu ishlar yanada kengayib, samarali natijalarga erishildi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida bu boradagi ustuvor vazifalar xususida to‘xtalib, ekologik muvozanatni ta‘minlash mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini alohida urg‘uladi, mazkur jabhada amalga oshiriladigan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Xususan, ekologik barqarorlikka erishish, yer osti va yer usti boyliklaridan oqilona foydalanish, mazkur jabhada xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, kelgusi yil Samarqandda Global ekologik jamg‘armaning navbatdagi assambleyasi va Markaziy Osiyo xalqaro ekoko‘rgazmasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ushbu tadbirlar tarmoqlar, hududlar va biznes uchun hamkorlar topish, yangi ekoloyihalarni birgalikda boshlashga katta imkoniyat yaratadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2 mingga yaqin ko‘mir va gazda isitiladigan issiqxona bor. Ulardan havoga yiliga 137 ming tonna zararli modda chiqadi. Endi ko‘mirda filtsiz ishlaydigan qozonxonalardan voz kechiladi. Ularni poytaxt atrofidan ko‘chirib, hamma joyda markazlashgan qozonxonalarga o‘rnatib yo‘lga qo‘yiladi. Shu maqsadda 200 gektardan kam bo‘lmagan agroklastlar tashkil etiladi, ularning tarkibiga o‘tadigan issiqxonalar alohida subsidiya beriladi.

Albatta, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga bu qadar katta e‘tibor qaratilishi bejiz emas. Kelajak taraqqiyotini o‘ylagan har bir davlat bu borada tobora global tus olayotgan ekologik muammolarga bugun e‘tibor qaratilmasa, ertaga kech bo‘lishini yaxshi anglamogda. Shunga monand ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

dasturlarini ishlab chiqishda, avvalo, tabiiy muvozanatga bezarar usullarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda 2025-yil davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilishi natijasida suv, havo, tuproq musaffoligini ta‘minlash, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, tez sur‘atlarda o‘sib borayotgan iqtisodiyotimizning energetikaga talabini to‘liq qondirish maqsadida “yashil” quvvatlar jadval rivojlantirilyapti. So‘nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari ishga tushirildi, umumiy generatsiyada “yashil” energiyaning ulushi 30 foizga yetdi.

Yaqinda hamkorlar bilan jami 3,5 ming megavattli 4 milliard 200 million dollarlik yangi “yashil” quvvatlar qurilishiga start berildi. Bu — 2026-yilning o‘zida 7 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va havoga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldini olishga zamin yaratishi bilan ahamiyatli.

Qishloq xo‘jaligida suv sarfini kamaytirish maqsadida irrigatsiya tizimlari betonlashtirilyapti. Suvni tejaydigan texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmogda. Natijada suv sarfini kamaytirishga erishilayotir.

Yurtimizda yiliga 14 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Lekin ularni qayta ishlash darajasi past. Shu bois, sohadagi ishlarni tashkil etishda ham zamonaviy yondashuvlar joriy etilmogda. Chiqindi korxonalari uchun yangi texnikalar olib berildi. Avvallari davlat monopoliyasida bo‘lgan sohada tadbirkorlikka yo‘l ochilib, qulay biznes muhiti yaratildi.

Jumladan, sanitar-tozalash hamda chiqindini qayta ishlash korxonalari uchun foyda solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi. Chetdan olib kelinadigan texnika va uskunalar import bojidan ozod qilindi. Natijada bir qator sanitar-tozalash va chiqindini qayta ishlash korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahallalarda chiqindi maydonchalari qurildi. To‘plash va tashib ketish yaxshilangani natijasida ushbu tarmoq ikkilamchi xomashyo manbaiga aylandi.

Bu ishlar takomillashtirilib, chiqindini yoqish orqali energiya ishlab chiqarish loyihalari qo‘llab-quvvatlanmogda. Jumladan, Xitoy kompaniyalari ish-tirokida chiqindilarni qayta ishlash zavodlari qurilishi boshlandi. Loyihalar doirasida yiliga 3,6 million tonna chiqindi qayta ishlanaadi va katta hajmda elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Tabiatni asrash va barqaror rivojlanishga erishishda bu jabhada belgilangan vazifalarni tezkor hamda yangicha yondashuv asosida sifati tashkil etish, ekologik qonunchilik ijrosini ta‘minlash, mazkur yo‘nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimizning “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga

tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ayni yo‘nalishdagi ishlar rivojida muhim dasturlamal bo‘ldi.

Unga muvofiq, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining tashkil etilishi ekologik muhitni barqaror saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, o‘rmonlarni ko‘paytirish, global iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, cho‘llanishga qarshi kurashish sohalarida yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi.

Ekotadbirning muhim
natijalari

Inson sog‘lom va uzoq umr kechirishi uchun toza suv, to‘yimli oziq-ovqat bilan bir qatorda havoning sofligi nihoyatda muhim omillar qatorida turadi. Ammo so‘nggi yillarda atmosfera havosining ifloslanishi, chang-to‘zonlar kuchayganini inkor etib bo‘lmaydi. Mamlakatimiz va mintaqamizda ham bunday

chang-gaz tozalash qurilmalari o‘rnatildi. AI-80 benzinini ishlab chiqarish to‘xtatildi, joriy yildan boshlab esa savdosi to‘liq cheklandi. Avtotransportlarga ekostiker tizimi joriy etildi. “Zamin” xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlikda poytaxtimizda 7 avtomatik havo monitoringi stansiyasi o‘rnatildi. 74 ta korxonada mahalliy tozalash inshootlari modernizatsiya qilindi, ikki ming gektar yer rekultivatsiyadan o‘tkazildi.

“Yashil makon” tashabbusi doirasida 200 million tupdan ortiq daraxt va butalar ekildi, “Mening bog‘im” loyihasi orqali 208 ta “yashil bog‘” va jamoat parklari barpo etildi. Sanoat korxonalari atrofida 10 million tup ko‘chat ekilib, ko‘kalamzor hududlar yaratildi. Bu chora-tadbirlar yurtimizda suv, havo, tuproq sofligini saqlash, ekologik muammolarning inson hayoti va salomatligiga salbiy ta‘sirini kamaytirishda o‘z samarasini bermogda.

Ayni paytda poytaxtimizda ekologik muvozanatni yanada yaxshilash maqsadida shaharning 4 ta qismida sun‘iy ko‘l va havzalar qurish ishlari olib borilyapti. Shahrimizda soya-salqin hududlarni kengaytirish, yashil bog‘larni ko‘paytirish

tashkil etish orqali investitsiyalarni jalb qilish, atrof-muhit yaxshilanishiga hamda iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Ayni yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda o‘rmonlarni va yashil hududlarni kengaytirishning ahamiyati beqiyos. Zero, o‘rmonlar tabiiy muvozanatni saqlash, havo sofligini ta‘minlash va barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Shu bois, mamlakatimizda o‘rmon maydonlarini kengaytirish va degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash bo‘yicha choralar izchil kengaytirilmogda.

2025-yilda o‘rmonlarni barpo etish va tiklash ishlari 150,7 ming gektar maydonni qamrab oldi. O‘rmon-melioratsiya tadbirlarining asosiy hajmi Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi hududiga qaratildi, u yerda 145,2 ming gektar o‘zlashtirildi. Eng katta maydonlar Mo‘ynoq tumaniga to‘g‘ri keladi, u yerda 90,5 ming gektarda o‘rmonzor barpo etilgan.

Shuningdek, Buxoro viloyatining bir qator tumanlari, Navoiy va Xorazm viloyatlarida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Boshqa hududlarda yana 5,5 ming gektar o‘rmon barpo etildi.

Shu bilan birga, ko‘chatxonalarini rivojlantirish va o‘rmon xo‘jaligining moddiy bazasini mustahkamlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmogda. Ko‘kalamzorlashtirishda barqaror sur‘atlarni ta‘minlash uchun o‘tgan yili 979 tonna daraxt va buta urug‘lari tayyorlandi. O‘rmon xo‘jaliklarida 1300 gektar maydonda zamonaviy ko‘chatxonalar tashkil etilib, u yerda mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan 123 million tup ko‘chat va nihollar yetishtirildi.

Tuproq degradatsiyasining oldini olishga alohida e‘tibor qaratilmogda. O‘tgan yili cho‘l va tog‘oldi hududlarida 1390 gektar maydonda himoya o‘rmon chiziqlari yaratildi. Bu tuproq eroziyasi va shamol ta‘sirini kamaytiradi. Tog‘li va adir hududlarda 41 gektarda o‘rmonlar terraslash usuli bilan barpo etildi, bu esa nishablarni samarali mustahkamlash va tabiiy landschaftlarni saqlash imkonini beradi. Qo‘shimcha yo‘nalish sifatida dorivor va oziq-ovqat o‘simliklari plantatsiyalarini rivojlantirish maqsadida 5890 gektar maydonda 7918 tonna mahsulot yetishtirildi.

O‘rmon fondidan foydalanish samaradorligini oshirish doirasida avval past samarali deb topilgan 4842 gektar yer o‘zlashtirildi. Bundan tashqari, 1530 gektar o‘rmon fondi uchastkalari onlayn-auksionlar orqali ijaraga berildi. Bu esa xususiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘rmon xo‘jaligi sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Islahotlarning yana bir yo‘nalishi ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish bo‘ldi. Shu maqsadda 100 gektar maydonda yangi eksperimental plantatsiyalar yaratildi. Arnasoy tumanida sho‘rga chidamli o‘simliklarning yangi galofit bog‘ini yaratish ishlari boshlandi. Natijada mamlakatimiz hududini qoplagan o‘rmonlar maydoni 4,7 million gektarga yetdi.

Elektromobillardan
foydalanish rag‘batlantiriladi

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning qamrovi keng, kutilayotgan natijalar esa ancha salmoqli. Zero, tabiat bizning

yakkayu yagona yashash makonimiz, tirikligimizning muhim manbai. Shu bois, bu jabhadagi islohotlar izchil davom etishi va dolzarb ekologik muammolarning yechimini topish yo‘lidagi sa‘y-harakatlar bardavom bo‘lishi bugungi va kelajak avlodlar oldidagi ezgu vazifamizdir. Shu ma‘noda, Prezidentimizning parlament va xalqimizga Murojaatnomasida jamiyatni yuksaltirishning muhim yo‘nalishlari qatorida ekologik masalalar yechimiga ustuvor ahamiyat qaratilgani davlatimizning bu boradagi uzoq muddatli strategik siyosatining yaqqol ifodasi bo‘ldi.

Xususan, Murojaatnomada ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan, sanoatni modernizatsiya qilish va zararli chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish maqsadida yirik korxonalar uchun 100 million dollarlik kredit liniyasi ochildi. Ushbu mablag‘ ta‘mosfera havosiga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirish uchun filtrlar, tozalash inshootlari va chiqindilarni monitoring qilish stansiyalarini o‘rnatishga yo‘naltirildi.

Murojaatnomaning alohida qismi elektromobillardan foydalanishni rag‘batlantirishga bog‘ishlandi. Qayd etilganidek, ekologik toza transport vositalari sonini oshirishga qaratilgan besh yillik dastur amalga oshirildi. Dastur doirasida mahalliy elektromobillar uchun avtokreditlar 12 foiz, import elektromobillar uchun esa 16 foiz stavkada taqdim etiladi. Zaryadlash stansiyalarini tashkil etayotgan tadbirkorlarga 10 foizli imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, yer uchastkalarni auksionlarda bozor narxidan ikki baravar arzon narxda sotib olish imkoniyati yaratildi. Elektromobillarni quvvatlashda 1 kilovatt-soat uchun 300 so‘mdan oshgan elektr energiyasi xarajatlarining bir qismi davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Elektromobillarda taksi xizmatini ko‘rsatayotgan fuqarolar uchun ham qo‘shimcha imtiyozlar belgilangan.

Chang-to‘zonlarning oldini olish maqsadida Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar maydonda “yashil makon” hududi barpo etiladi, Sirdaryo viloyatida esa 84 kilometr uzunlikdagi “yashil devor” tashkil etiladi. Qorapog‘ol‘iston, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida jami 250 ming gektar maydonda, jumladan, Orolning qurigan tubida 115 ming gektar yerda daraxt va butalar ekiladi. Har bir hududda botanika va dendrologiya bog‘lari, shuningdek, kamida 20 ta soya-salqin sayr yo‘laklari barpo etilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz yaqin besh yil ichida korxonalarida ekostandartlarni joriy etish kamida 30 ming nafar ekologik menejer tayyorlashni talab etishini ta‘kidladi. Shu munosabat bilan 2026-yilda har bir hududda “yashil” texnikumlar tashkil etilib, dual ta‘lim asosida yiliga 10 ming nafargacha mutaxassis tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo Yashil universiteti faoliyati kengaytiriladi. Havo, suv va tuproq sifati baholashga mo‘ljallangan kompleks laboratoriyalar tashkil etiladi. Shaharlarda tabiiy shamollatishni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib boriladi.

Umuman olganda, 2026-yilda ekologiya sohasini rivojlantirish uchun 1 trillion 900 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

Sohaga qaratilayotgan bunday e‘tibor tabiatga mehri munosabat orqali kelajak avlodlarga unumdor yer, zilol suv, musaffo havoga ega bo‘lgan go‘zal Vatanni meros qilib qoldirishdek ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadamlardir. Tabiiyki, ezgu niyatlar amalga oshishi uchun butun jamiyatimiz yakdli va hammafas bo‘lishi ayni muddao. Zero, tabiat har bir insonga onadek aziz. Shunday ekan, uning bag‘ri butun va barqaror bo‘lishi har birimizning farzandlik mehmrimiz va e‘tiborimizga bog‘liq.





SUN'IY INTELEKT:

to'rtinchi sanoat inqilobi ostonasida

Bugungi global raqobat sharoitida har bir davlat o'z kelajagini innovatsiya, bilim va raqamli yechimlar asosida barpo etmoqda. O'zbekiston ham ana shu ulkan o'zgarishlar jarayonida yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yib, sun'iy intellekt va ilg'or texnologiyalarni milliy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida belgilab olmoqda.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida joriy yil uchun belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish ekanini bejiz emas. Chunki barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, global bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash va yangi qiymat yaratish aynan zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog'liq.

Prognozlarga ko'ra, kelgusi yilda iqtisodiyotda 6,6 foiz o'sishni ta'minlab, yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilmoqda. Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va ishlab chiqarish tannaxsini pasaytirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilsa, ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Ana shu maqsadda sanoat sohasida "Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish" dasturi ishga tushiriladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mehnat unumdorligi va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan alohida loyiha amalga oshiriladi. Ushbu tashabbus doirasida xalqaro moliya institutlaridan 200 million dollar miqdorida kredit va grantlar jalb qilinib, sanoat korxonalariga xorijdan yuqori malakali texnolog va muhandislar olib kelinadi. Shu bilan birga, biznes jarayonlar raqamlashtiriladi, energiya va boshqa xarajatlarni qisqartirish bo'yicha auditlar o'tkaziladi hamda ilg'or texnologiyalar transferi ta'minlanadi.

Bu islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida "To'rtinchi sanoat inqilobi markazi" tashkil etiladi. Markaz negizida robototexnika, internet buyumlari, "aqli" fabrikalar kabi "Industriya 4.0" yechimlarini sanoat korxonalariga joriy etish uchun maxsus tartibga solish mexanizmi yaratiladi. Bu mexanizm korxonalarga yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishdan oldin ularni sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar faqat texnologik rivojlanishni emas, balki inson salohiyatini oshirish, bilim va intellektual qudratni yuksaltirishni ham maqsad qiladi. Shu bois, tezkor o'zgarishlar davrida sun'iy intellekt qanday imkoniyatlar ochayotgani, qaysi sohalarda yangi salohiyat yaratayotgani va eng muhimi, uning ildizi qaysi omillarga tayanishi masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda ommaviy axborot vositalarida rivojlangan davlatlardan birida sun'iy intellekt vazir lavozimida ishlay boshlagani haqida xabar tarqaldi. Bir eshitganda bu yangilik kishida shubha uyg'otishi tabiiy: inson aqli mahsul bo'lgan dastur qanday qilib bunday mas'uliyatni vazifani bajara

munosabati izchil o'zgarib borganini ko'ramiz. Birinchi sanoat inqilobi qo'l mehnatidan mashina mehnatiga o'tishga zamin yaratib, manufaktura sanoati o'miga yirik industriya shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon mehnat unumdorligining oshishi, shaharlashuv ko'lamini kengayishi (urbanizatsiya), iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasi yaxshilanishi kabi ijobiy o'zgarishlarda aks etdi.



oladi? Buning ajablanarli jihati yo'q. Ilgari faqat buyruq bajaradigan dasturlar endi qaror qabul qilish, tizimni boshqarish darajasigacha yetmoqda.

Ko'pchilik bu o'zgarishga boshqacharoq yondashmoqda. Odamlar uchun endi vazifani kim bajarayotgani emas, qanday bajarayotgani muhim. Ya'ni korruptsiyasiz, shaxsiy manfaatlarisiz, xolis va samarali boshqaruv bo'layotgan ekan, bu vazifani inson yoki sun'iy intellekt bajarayotgani katta ahamiyat kasb etmayapti.

Sun'iy intellektning bu darajada rivojlanishi qator savollarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Inson ixtiro qilgan sun'iy idrok odamzoddan ustun bo'lib qolmaydimi, ya'ni sobiblarni boshqara boshlamaydimi? Yoki inson va texnika o'rtasidagi munosabatlarni kelajakda qanday shakllanadi? Bu kabi savollarga javob topishdan oldin o'timishga yuzlansak.

Sun'iy intellekt tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan emas. Asrlar davomida insoniyat tafakkur qobiliyatini oshirish, aql-idrokini yanada samarali qo'llash maqsadida turli ixtirolar yaratib kelgan. Bular zahirida odamzodning mehnati, tafakkuri va itilishi mujassam bo'lgan. Har bir yangilikda inson tafakkuri mahsul bo'lgan. Endi esa bu taraqqiyot yangi bosqichga ko'tarildi, ya'ni sun'iy intellekt inson tafakkurining bir qismi sifatida rivojlanmoqda. Biroq qanchalik tezkor va aniq ishlamasin, unda insonga xos qalb, hissiyot va ruhiy kechinmalar mavjud emas. Ammo mukammal aniqlik va samaradorlik bilan harakatlanadi. Ana shu jihati tufayli sun'iy intellekt ko'pchilikni hayratga solmoqda.

Texnologik taraqqiyot tarixiga nazar tashlasak, sanoat inqilobi jarayonida inson va mashina

Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar aynan shu intellektual qobiliyatga ega dasturlar va qurilmalarni yaratishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Ular insonning aqliy imkoniyatlarini modellashtirish va amaliy faoliyatga tatbiq etishga qodir.

Hozir ma'lumotlar oqimi tobora ortib borayotgani sababli murakkab muammolarni hal etish jarayoni inson uchun muayyan noqulayliklar tug'dirmoqda. Shuning uchun ham sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha dunyo miqyosida izchil ishlar bajarilmoqda. Bu texnologiya insonning og'irini yengil qilish, samaradorlikni oshirish, yangilashish ehtimolini kamaytirish imkonini bermoqda.

Ayniqsa, tibbiyot sohasida sun'iy intellektning o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Eng murakkab jarrohlik amaliyotlari sun'iy intellekt yordamida bajarilmoqda. Bu esa xatar darajasini kamaytirib, samaradorlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida yirik loyihalar rejalashtirish, vaqt va resurslarni tejash imkoniyati tug'ilmoqda.

Texnologiyani b kabi imkoniyatlari keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayrim mamlakatlarda hatto sun'iy intellektga ixtisoslashgan universitetlar tashkil etilmoqda. Bu ta'lim masalasalarini kelajak mutaxassislarini tayyorlash, sohaga oid tadqiqotlarni chuqurlashtirish va innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etishda muhim o'rinni tutmoqda.

Milliardlarga tatyidigan loyihalar

Bugun dunyoda sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik va boshqa muhim yo'nalishlarda asosiy vositalardan biriga aylanib ulguragan ekan, ular davlat boshqaruviga samaradorlikni oshirish, resurslardan tejakor foydalanish, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham bu boradagi sa'y-harakatlar tobora izchil va maqsadli tus olmoqda. Davlatimiz rahbari 2025-yil 6-oktabr kuni mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularni iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng tatbiq etish masalalariga bog'ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki samarali boshqaruv, xavfsizlik, ta'lim va sog'liqni saqlashda ham muhim vositaga aylanmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham bu sohada tizimli islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimiz sun'iy intellektni tatbiq etish bo'yicha xalqaro reytingda 17 pog'ona yuqoriladi. Hozir O'zbekiston 188 davlat orasida 70-o'rinni, Markaziy Osiyo bo'yicha esa 1-o'rinni egallab turibdi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun'iy intellekt loyihalarini joriy etish maqsadida 50

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



million dollar ajratilgan. Sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, ekologiya va moliya sohalarini qamrab olgan 86 ta loyiha shakllantirildi. Hozir sun'iy intellektni qo'llash uchun zarur hisoblash imkoniyatlarini yaratish maqsadida "super kompyuter klasteri"ni tashkil etish ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Sohada kadrlar tayyorlash sur'atini oshirish maqsadida ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" milliy dasturi doirasida yoshlar uchun aistudy.uz va omp.aistudy.uz platformalari ishga tushirildi. Ularda sun'iy intellekt bo'yicha 5 ta bepul onlayn o'quv dasturi yo'lga qo'yilgan. Dastur doirasida 2027-yilga qadar 1 million yigit-qiz sun'iy intellekt sohasiga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Yoshlar — bugungi rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi. Shu bois, ular uchun sun'iy intellekt hakatonlari tashkil etilmoqda. Yaqinda Nukus shahrida sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha "HealthTech AI Hackathon" musobaqasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bunday tashabbuslar boshqa sohalarda ham keng yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu islohot va loyihalarini qo'llab-quvvatlab, ularni yanada jadallashtirish, ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi. Axborot xavfsizligi talablariga

rioya etgan holda "katta ma'lumotlar" bazasini yaratish, ularni qayta ishlash uchun zamonaviy infratuzilmani yo'lga qo'yish ham belgilandi. Bu esa faqat texnologik rivojlanish emas, balki yangi taraqqiyot bosqichining boshlanishidir.

O'zbekiston bugun o'z taraqqiyot yo'lidagi muhim bosqichga yetdi. Bu borada ilm, tafakkur, yangi g'oyalar va zamonaviy yechimlarga asosiy ustuvor omil sifatida qaralmoqda. Sun'iy intellektning keng joriy etishga doir sa'y-harakatlar yurtimiz faqat texnologik taraqqiyotni emas, balki inson salohiyatini rivojlantirish, har bir fuqaroning bilim va imkoniyatlarini yuksaltirishni maqsad qilib olganini ko'rsatadi. Inson va sun'iy intellektning hamkorligi bugun biz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish esa ertangi kunimizni qanday qura olishimizga bog'liq.

Imkoniyat soyasidagi xavflar

Sun'iy intellekt hayotimizga qulaylik olib kirish bilan birga butun jamiyat va global iqtisodiy tizimni o'zgartirish qobiliyatiga ham ega. Ilgari faqat fantastik asarlarda uchraydigan robotlar, intellektual dasturlar va mashinalar endi hayotimizning ajralmas qismidek namoyon bo'lmoqda. Qator olimlar sun'iy intellektga faqat manfaat keltiradigan soha emas, balki cheksiz qudratga ega bo'lib borayotgan tizim sifatida qaramoqda. Uning oqibatlari haqida turli farazlarni ilgari surmoqda.

— Sun'iy intellekt matematika, dasturlash, biologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha falsafa doktori tablari darajasida yaxshi natija ko'rsatmoqda. Menimcha, 2026-2027-yillarga borib, deyarli barcha yo'nalishni hamma odamdan yaxshi biluvchi sun'iy intellekt tizimlariga ega bo'lamiz, — deydi ANTHROPIS kompaniyasi asoschisi Dario Amodei. — Sun'iy intellekt yordamida dunyodagi barcha muammoni bir zumda hal qilish mumkinmi? Menimcha, yo'q. Masalan, mustaqil harakatlanuvchi avtomobillar ishlab chiqarish muammosi hanuzgacha dolzarb. Shuning uchun sun'iy idrok imkoniyatlari fizik olamning xususiyatlari va qonuniyatlari bilan cheklangan. Farmatsevtika sohasini olaylik: sun'iy intellekt bizga klinik sinovlarni tezlashtirish imkonini beradi, biroq ularni baribir odamlar o'tkazishiga to'g'ri keladi. Chunki fizika va biologiyadagi qonuniyatlarni hisoblash kerak. Agar sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanilsa, biologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha 5-10 yilda 100 yillik taraqqiyotga erishish mumkin.

Sun'iy intellektni rivojlantirish jarayonida nafaqat texnologiya va iqtisodiyot, balki axloq, huquq va inson qadr-qimmatini nuqtayi nazaridan yondashish talab etiladi.

Qonunchilik, nazorat tizimlari va xalqaro standartlar ushbu texnologiyalardan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni kafolatlashi zarur.

— Universal sun'iy intellektni o'rganish uchun ko'proq sarmoya ajratilishi lozim. Uni ishlab chiqish qo'limizdan kelmoqda. Bu borada aniqlashtirilishi zarur bo'lgan juda ko'p jihat bor. Shaxsan men bu jarayonning markazida bo'lsam ham sun'iy intellekt taraqqiyotining sekinroq bo'lishini xohlayman. Biroq jarayon tobora tezlashmoqda, — deydi Stenford universiteti professori Yechin Choy. — Menimcha, sun'iy intellektni o'zini o'zi takomillashtirishiga emas, inson hayotini yaxshilashga ko'proq yo'naltirish lozim. Bu orqali insoniyat oldidagi eng murakkab savollarga javob topish imkoniyati kengayadi. Masalan, tabiiy ofatlar, o'rmon yong'inlari kabi hodisalarni qanday boshqarish mumkin? Ularni oldindan taxmin qilish yoki modellashtirish mumkinmi? Shuningdek, sun'iy intellektni shunchaki rivojlantirish o'rninga unga inson qadriyatlariga va axloqiy me'yorlarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratish kerak, deb bilaman.

Sun'iy intellekt insoniyatning eng ulkan ixtirosi bo'lishi mumkin. Biroq u aniq maqsad, mas'uliyat va inson manfaatlariga xizmat qilishi shart.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BIOLOGIK HIMOYA —

BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI TAYANCHI

Bugungi global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari qishloq xo'jaligida mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ana shunday sharoitda o'simliklarni himoya qilishda biologik usullarni keng joriy etish, kimyoviy vositalarga qaramlikni kamaytirish va tabiiy muvozanatni saqlash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu borada O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimiga xususiy sektorni jalb etgan holda texnik ta'minotni yaxshilash va faoliyatni rivojlantirish choralari ko'rilmogda.

Mulohaza



Yusuf BO'RONOV,
O'simliklar karantini va
himoyasi agentligi
"Biosifat" respublika markazi
rahbari

Mamlakatimizda biolaboratoriyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy va tashkiliy jihatdan mustahkamlash bo'yicha

izchil ishlar bajarilmoqda. Xususan, biolaboratoriya fermer xo'jaliklari va agroklasterni biologik xizmat ko'rsatish barobarida biomahsulotlarni ko'paytirish uchun zarur ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlashga amaliy yordam bermoqda. Bu esa tizimning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2025-yildan boshlab ilgari biolaboratoriya sifatida faoliyat yuritib kelgan binolarni davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralari ko'rilayotgani ham sohadagi institutsional islohotlarning mantiqiy davomidir. Bu orqali xususiy sektor faolligini oshirish, investitsiya jalb etish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish imkoniyati kengayadi.

Biolaboratoriyalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ham organik va xavfsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Zamonaviy texnologiyalar biomahsulotlarni sifatli va salmoqli hajmda ko'paytirish, ekin maydonlari bo'ylab tezkor tarqatish imkonini beradi. Natijada fermer xo'jaliklari va agroklasterning biologik himoya

vositalariga ishonchi ortadi, kimyoviy preparatlardan foydalanish esa bosqichma-bosqich kamayadi.

Eng muhimi, biologik usullar tabiatdagi bioxilma-xillikni saqlash, foydali hasharotlar

populyatsiyasini ko'paytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu maqsadda fermer xo'jaliklari va agroklasterni jamg'arma mablag'i hisobidan imtiyozli kreditlar ajratish, biolaboratoriyalarda biomahsulotlar ishlab chiqarishga zarur ozuqa mahsulotlarini xarid qilish uchun oldindan bo'nak bilan qo'llab-quvvatlash amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

Biologik kurash usullarining amaldagi samarasi raqamlarda yaqqol ko'rinyapti. Hududlarda faoliyat yuritayotgan 639 ta biolaboratoriya 2024-yilgi mavsumda milliirdlab oltingo'z, trixogramma va brakon kabi entomofaglar ko'paytirilib, millionlab gektar g'alla va paxta ekin maydonlariga tarqatildi. 2025-yilgi mavsumda esa bu ko'rsatkich yanada oshib, entomofaglarni zararkunandalarga qarshi bir necha marta qo'llash orqali himoya samaradorligi kuchaytirildi.

Kelgusida biolaboratoriyalarni to'liq quvvatda ishga solish natijasida biomahsulotlar hajmi sezilarli darajada ortadi, yangi ish o'rinlari ochiladi va kimyoviy vositalarga qaramlik keskin kamayadi. Ayniqsa, entomofaglarni tarqatishda zamonaviy texnika va dron texnologiyalarini qo'llash mehnat xarajatini kamaytirish, ish unumdorligini bir necha baravar oshirish imkonini beradi. Bu esa biologik himoya usullarini hatto yetib borish qiyin bo'lgan ekin maydonlarida ham samarali qo'llashga xizmat qiladi.

Biolaboratoriyalar faoliyati zararkunandalarga qarshi kurash bilan birga barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va sog'lom avlod kelajagiga qaratilgan strategik yo'ldir. Biologik himoyani rivojlantirish orqali mamlakatimiz qishloq xo'jaligi yangi sifat bosqichiga ko'tariladi.

